



ANESTEZIYA - ZAMONAVIY OG'RIQSIZLANTIRISH.

*Farg'ona shahar Abu Ali Ibn Sino nomidagi Jamoat salomatligi texnikumi
”Hamshiralik ishi “kafedrasi o'qituvchisi, TTB Reanimatsiya bo'limi
anestezist hamshirasi
Oxunova Feruza G'aniyevna.*

Annotatsiya: Ushbu maqolada so'nggi yillarda anesteziologiya texnologik va dinamik ravishda rivojlanayotgan tibbiyot mutaxassisliklaridan biriga aylandi. Uning zamonaviy imkoniyatlari katta. Kompyuter monitoringi, biotibbiy jarayonlarni matematik modellashtirish, avtomatik va ba'zi fiziologik jarayonlarni yarim avtomatik boshqarish tizimlar kabi tibbiy muhandislik tizimlari yaratilgan va allaqachon klinik amaliyotda qo'llanilmoqda. Anesteziyalogiyaning barcha bo'limlarida ishlatiluvchi asosiy va yordamchi asboblardan tortib, NNA apparatlari, laringoskop intubatsion trubkalar, kosmetik, zamonaviy oksigenator apparatlari (Sipap, Dragor, Acoma) jumladan zamonaviy narkoz apparati (Faza 5, fabius) defibrillyator, maskalar (esmarx, konturli) yoritilgan. Bundan tashqari narkoz nafas apparaturasini ishlashga tayyorlash, gazlar (kislород, azot (1)oksidi) bilan ishslash, operatsion-anesteziologik xavf darajasini aniqlash, mahalliy va umumiy og'riqsizlantirish asoratlarini oldini olish, klinik belgilarga asoslangan xolda "klinik o'lim" holatining diagnostikasi, EKG ma'lumotlariga asoslangan xolda yurak to'xtashi turlarini aniqlash, yurakni medikamentoz stimulyatsiya qilish, kasalxonagacha va kasalxonada o'pka-yurak va miya reanimatsiyasini o'tkazish, defibrillyatsiyani amaliyotini o'tkazish, traxeyani intubatsiya qilish, infuzion-transfuzion davo o'tkazish, nazofaringeal kateter va niqoblar orqali kislород terapiyalari o'tkazish, aspiratsiyani oldini olish hamda juda ko'plab nazariy amaliy bilim va ko'nikmalar haqida malumotlar berilgan.



Kalit so`zlar:

- 1.*Narkoz-* (yun. *narkosis* — *karaxtlik*)
- 2.*Anesteziologiya atamasi grekcha so'z bo'lib, an —yo'qolmoq, aistesis —sezgi, logos —fan ma'nosini anglatadi.*
- 3.*Analgeziya (og'rik yo'qligi)*
- 4.*Anesteziya, narkoz (ongni yo'qotish)*
- 5.*Mioplegiya (kundalang-targ'il mushaklarning bo'shashishi) -*
- 6.*AB-Arterial bosim*
- 7.*NLA-Neyroleptoanalgeziya*
- 8.*GOMG-Gammi masleniviy kislota*
- 9.*YUIK-Yurak ishemik kasalliklari*
- 10.*O`SV-O`pka sun'iy ventilyatsiyasi*
- 11.*EKG –Elektrokardiograf apparati*
- 12.*EEG-Elektroensafolografiya*
- 13.*ExoKG-Exoxolnergrafiya*
- 14.*Pulsoksometriya-arterial qondagi kislородни porsial bosimi*

Narkoz (yun. *narkosis* — *karaxtlik*) — sun'iy yo'l bilan (ba'zi kimyoviy moddalar va boshqa omillar ta'sirida) hosil qilinadigan chuqur uyqu holati, bunda kishi hech narsani sezmaydi, ixtiyoriy harakat qila olmaydi, es-hushi butunlay yoki qisman yo'qoladi. Tibbiyotda xirurgik operatsiya vaqtida og'riqsizlantirish (anesteziya) maqsadida qo'llanadi.

”**Anesteziologiya** ” atamasi grekcha so'z bo'lib, an —yo'qolmoq, aistesis —sezgi, logos —fan ma'nosini anglatadi. Shunday qilib, anesteziologiya sezgi yo'qolishi bilan bog'liq og'riqsizlantirish usullarini o'rganadigan fandir.Lekin anesteziologiya dastlab operatsiya vaqtida hayotiy muhim organlar faoliyatini saqlab turish vazifasini, keyinchalik operatsiyadan keyingi davrda operatsiyaning stress holatlaridan himoya



qilishni o'z zimmasiga oldi. Anesteziologiyaning asosiy vazifalari organizmning hayotiy muhim funksiyalarini operatsiyaning zararli ta'sirlaridan himoya qilish, premedikatsiya o'tkazish, operatsiya paytida og'riqsizlantirish usulini tanlash va ta'minlash. neyrovegetativ reaksiyalarning oldini olish, nafas buzilishlarini korreksiyalash va lozim bo'lganda o'rnni bosish, gemodinamikani boshqarish, modda almashinushi buzilishlarini korreksiya qilishdan iborat.

Og'riqsizlantirish va Narkoz haqida tushuncha

Og'riq deb tashqi muhit ta'sirida (mexanik, termik, fizik)teri va shilliq qavatdagi nerv oxirlarining ta'sirlanishi natijasida nerv tomirlari orqali impulslarning markaziy nerv tomirlari orqali impulslarning og'riqsizlantirish 2 xil bo'ladi, ya'ni narkotik dorilar ta'sirida markaziy nerv faoliyatining vaqtinchalik tormozlanishiga umumiy og'riqsizlantirish hamdateri va shilliq qavatlardagi nervoxirlarini anesteziyalovchi moddalar ta'sirida vaqtinchalik karaxtlashga mahalliy og'riqsizlantirishlar farq qilinadi.

Umumi og'riqsizlantirish (Narkoz).

Umumi og'riqsizlantirish deb narkotik moddalar ta'sirida markaziy nerv faoliyatini vaqticha karaxtlash holatiga aytildi. Bunda es hush sezuvchanlikning hamma turlari birin ketin yo'qoladi skelet mushaklari bo'shashadi va reflekslar so'nadi.

Narkoz turlari. Narkotik moddalarni odam organizmiga yuborish yo'llariga ko'ra:

1 Ingalyatsion :

2 Noingalyatsion narkoz farq qilinadi

1. Suyuq narkotik moddalar:



- 1.Efir
 - 2.Xloraform
 - 3.Xlor eti
 - 4.Ftoratan
 - 5.Pentran
 - 6.Trixol etilen
 - 7.Venetlen
- 2 Gazsimon narkotik moddalar**
- 1.Izofuron
 - 2.Giksenal



Noingalyatsiyali narkoz va uning turlari

1.Vena ichi narkozi uchun giksenal tiopental natriy vioderal natriy oksibutirat (GOMK) sombervin va boshqalar qo'llaniladi.Bemorlar holatiga qarab operatsiyadan oldin kerakli konsentratsiyadagi (2-2-10%) eritmani 300-800ml hisobiga 5% glyukoza yoki fiziologik eritmalar bilan suyultirib tayyorlanadi.

2.To'g'ri ichak ichi narkozi. Bunday narkoz bolalar jarrohlik amaliyotida ko'proq qo'llaniladi. Odatda 3%li avertan yoki narkolan eritmasidan foydalaniladi. Narkotik moddaning iltilgan eritmasi yuboriladi. Bemor 15-20 daqiqadan so'ng



uxlab qoladi va uyqu bir necha soat davom etadi. Narkotik modda miqdori bemor og'irligining har 1kg ga 0,1-0,2 gr hisobida belgilanadi. Kamchiligi yarali kolit, prakitlar, narkozning yetarlicha chuqur emasligi, toksikligi sababli 1% gacha o'lim yuz berishi. Bu usul kamdan kam qo'llaniladi.

3.Neyroliptoanalgeziya. Es-hush saqlanib qolgan holda og'riq sezuvchanligining yo'qolishi bilan kechadigan o'ziga xos holat.U fentanil analgetigini (10-20 kg og'irligiga 0,005%li eritmasidan 1 mg) va neyroleptik modda degidrobenzperidolni (1 kg og'irlikka 0,5 mg) venaga yuborilganda yuzaga keladi.

4.Elektr narkoz.Turli parametrlardagi elektr tokining ta'siri bilan hosil qilinadi.



Mahalliy og'riqsizlantirish va uning turlari

Mahalliy og'riqsizlantirish (anestiziya) deb bemorning es-hushi saqlanib qolgan holda, operatsiya qilinadigan sohani anestiziyalovchi moddalar ta'sirida



karaxtlash holatiga aytildi. Anestiziyalovchi moddalar ta'sirida karaxtlash holatiga aytildi.

Jarrohlik amaliyotida mahalliy og'riqsizlantirishning quyidagi turlari farq qilinadi.

- 1.Surkash yo'li bilan anesteziya qilish;
- 2.Qavatma-qavat infiltratsion anesteziya;
- 3.G'ilofli anesteziya;
- 4.Regionar-o'tkazuvchi anestiziya;
- 5.Vena va arteriya ichi anesteziyasi;
- 6.Suyak ichi anestiziysi;
- 7.Muzlatkich yo'li bilan anestiziylash;
- 8.Peridural anesteziya;
- 9.Orqa miya anesteziyasi;
- 10.Sakral anesteziyasi;

1.Surkash yo'li bilan anesteziya. Ko'z kasalliklari amaliyotida,urologiyada,otorinolaringologiyada,bronxologiyada ko'p qo'llaniladi.Og'riq sezgisini yo'qotish zarur bo'lgan to'qima sohalarini 1-10% li novokain eritmasi yoki 0,1 % li novokain 2-3 dikain eritmasiga ho'llangan tampon bilan artiladi.

2.Qavatma-qavat infiltrativ anestiziya. Bu usulda anestiziyalovchi eritmani qavatma-qavat qilib shimdirishdan iborat.buning uchun 0,25-0,5% li novokain



eritmasi ishlatiladi. Anestiziyaning bu usulini A.V. Vishnevskiy bat afsil ishlab chiqqan. Bu usulda kesma chizig'i bo'y lab teri orasiga ingichka igna yordamida "limon po'stlog'i" belgisi paydo bo'lguncha novokain eritmasi yuboriladi.

3.G'ilofli anesteziya. Og'riqszlantirishning bu usulini ham A.V. Vishenovskiy ishlab chiqqan. Oyoq-qo'lardagi operatsiyalarda qo'llanilib, kesma sathining yuqorisidan jgut bog'laniladi, jgut dan pastroqda ikki yoki uch nuqtadan teri orqali 0,25% li novokain eritmasini (500-800ml) ananevroz ostiga chuqur ineksiya qilib yubirladi. Og'riqsizlantirishning bu usuli oyoq-qo'llarini amputatsiya qilishda keng qo'llaniladi.

4.O'tkazuvchi yo'llar anesteziyasi. Novokain eritmasini bevosita nervga yoki uni o'rabi turgan to'qimalarga yuborishga aspslangan. Shu maqsadda 10-20ml miqdordagi 1-2% li novokain eritmasi qo'llaniladi.

5.Vena ichi va arteriya ichi anesteziyasi. Anestiziyaning bu turi ham oyoq va qo'l operatsiyalarida qo'llaniladi oyoq yoki qo'l qonsizlantirilgandan keyin o'sha zahoti elastik bint bilan operatsiya maydonining yuqori chegarasi ustidan venoz jgut qo'yiladi. Punksiya yo'li bilan yoki tomir ajratilgandan so'ng o'tkir usulda tomirga novokain eritmasi yuboriladi. Qo'l uchun 60-80ml oyoq uchun 100-200ml 0,25-0,5% li novokain eritmasi kerak bo'ladi.

6.Suyak ichi anesteziyasi. Vena ichi anesteziyasining bir turi hisoblanadi. Oyoq yoki qo'lga venoz jgut qo'yiladi so'ngra suyakning(tovon, son suyak bo'rtmalari, katta boldir suyagining ustki metafzim bilak va tirsak suyaklarining boshchalari) g'ovak moddasiga maxsus yo'g'on igna orqali 1% li novokain eritmasidan 30-50ml yuboriladi. Og'riqsizlantirishning bu turi ortopediya va travmatologiya amaliyotida tayanch-harakat operatsiyalarida krng qo'llaniladi.

7.Muzlatish yo'li bilan anesteziyalash.



Bu maqsadda xlor etil oqimini og'riqsizlantrish kerak bo'lgan sohasiga yo'naltiriladi.

8.Peridural anesteziya. Anesteziyalovchi modda peridural bo'shliqa yuboriladi.qattiq miyya pardasi teshilmayd.1%li trimekain eritmasi 20-30ml yoki 1%li lidokain eritmasidan 20-30ml foydalilanildi.

9.Orqa miya anesteziyasi. Anestiziyalovchi modda orqa miyaning subaraxnondal bo'shlig'iga yuboriladi. Orqa miya suyuqligi bilan aralashib orqa miya nervlari ildizlarini namlaydi.natijada og'riqsizlantiruvchi ta'sir yuzaga keladi. Anesteziya uchun 5%li novakain eritmasidan 1-2ml 1%li sovkain eritmasidan 0,5-1ml 2% trimekain eritmasidan 1-2 ml 2%li llidokain eritmasidan 1-2 ml qo'llaniladi.




Og'riqsizlantirishning aralash va kombinatsiya qilingan usullari.

Hozirgi paytda jarrohlik amaliyotida bitta narkotik modda (masalan,efir)qo'llaniladigan sof narkoz,ayni vaqtda ikkita yoki bir nechta moddalar (massalan, efir va azot (1) oksid aralashmasi yuboriladigan aralash narkoz moddalar hamda ularni yuborish usullari) o'zgartirib turiladigan kombinatsiya qilingan narkoz turlari tafovut qilinadi.Bunda avval venaga geksenal yuboriladi, uyqu boshlangandan so'ng efir narkozi beriladi shu tufayli katta dozadagi narkotik moddalarning salbiy xossalariini bartaraf etishga muvaffaq bo'linadi.



Kombinatsiya qilingan og'riqsizlantirishda muskul relaksantlari ko'p qo'llaniladi. Murakkab operatsiya qilish uchun muskullarning bo'shashishi g'oyat muhimdir. Bundan tashqari miorelaksantlardan benorni intubatsiya qilishni osonlashtirsh, mustaqil nafas olishni to'xtatish uchun foydalaniladi, bu boshqariladigan nafas olishda juda muhim.

Hozirgi vaqtida murakkab operatsiyalarda, kombinatsiya qilingan og'riqsizlantirish qo'llaniladi. Narkozning bu turida asoratlar kam ko'rildi.



Foydalanilgan adabiyotlar:

O.Sh. Eshonov. Anesteziologiya va reanimatologiya Oliy va O'rta maxsus ta'lim vazirligi. Toshkent „Vorisnashriyot“ 2010,—368 (1)

Xirurgiya va reanimatsiya asoslari A.J.Xamroyev 2017(2)

Клинический Анестезиологи Дж. Эдвард Морган-мл.

Мэгид С. Михаил 2000 (3)



Anesteziologiyada va Reanimatsiyada hamshiralik ishi.V.N.TuraqulovБ, F.A.Qurbanov, K.R.Tongotarova. Navoiy 2019 у

Ichki kasalliklar Y.L.Arslonov, T.A.Nazarov, A.A.Bobomurodov Toshkent-2014y

Ichki kasalliklar propedevtikasi A.G.Gadayev, Karimov M.Sh, Axmedov X.S.. Toshkent-2014 yil.

.Ichki kasalliklar propedivtikasi A.Gadayev,M.Sh.Karimov,X.S.Axmedov, – Т.: «Muharrir» nashriyoti, 2012y.

Nafas organlari kasalliklari A.M. Ubaydullayev.: Yangi asr avlodi 2009y.

Ж.М.Собиров, Ш.Э. Отахонов, А.З. Газизов, А.Г. Парпиев
Тошкент"Янги аср авлоди" 2009

Favqulodda vaziyatlarda tibbiy xizmat ko‘rsatish tartibi t o sh kent«Yangi asr avlodi»2006

V.A. Galkin. Ichki kasalliklar. Т., «Meditina», 1989.

V.I. Porkovskiy. Infeksiyonkasalliklar. Т., 1990.

P.M. A’zamxojayev. Xirurgikkasalliklar. Т., 1991.

B.M. Макколен. Внутренние болезни. М ., 1992.

E.I. Salimov. Xatarli allergikholtatlar. Т., 1993.

S .Zalikina. Bemorlamingumumiyparvarishi. Т., Abu Ali ibnSino nomidagitibbiyotnashriyoti, 1995.

N.R. Paliyev. Meditsina hamshirasi spravochnigi. Т., 1998.



Терапевтический справочник Ваш ингтонского университета. (Под
редакцией Ч. Кери, Ч. Ли, К. Велте). М., 2000.

G.O.Haydarov, Sh. H. Ermakov. Ichkikasalliklar. T., Abu aliibn Sino nomidagi tibbiyot nashriyoti, 2002.

Internet saytlari:

www.ziyonet.uz.

www.google.co.uz

www.medical.uz

<http://www.Uza.uz>

www.MED.UZ

www.ZIYoNET.UZ